O’quv moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1	Tarbiyachisining ish hujjatlarini rasmiylashtirish	2	2	2			
2	Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish :kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish	2	2	2			
3	Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali)ni yuritish tartibi	2	2			2	
4	Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish	2	2			2	
5	Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish	2	2			2	
	Jami:	**10**	**10**	**4**		6	

1-Mavzu: Tarbiyachisining ish hujjatlarini rasmiylashtirish (80 daqiqa)

Reja:

1.Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug’ining mazmuni

2.05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug’ining mazmuni

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori hamda vazirlik tomonidan tasdiqlangan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturining ijrosini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ma’suliyatini oshirish yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 99-sonli buyrug’i qabul qilindi. Ushbu buyruqning ilovalari bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuritiladigan ish hujjatlari ro’yxati va hujjatlarni yuritilishi bo’yicha qo’llanma tasdiqlanib, respublikaning barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish uchun tavsiya etildi.

Mazkur metodik tavsiyanoma davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi barcha pedagoglar uchun ish hujjatlarini to’g’ri rasmiylashtirish hamda unga ijodiy yondashgan holda qat’iy amal qilish tartibini belgilaydi.

Tavsiyanomani tayyorlashdan maqsad, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondashgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta’lim mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilganligini ta’minlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachisining ish hujjatlari yig’ma jild indeksi “05” raqami bilan ro’yxatdan o’tkazildi va yuritilishi lozim bo’lgan

hujjatlarning jadvali taqdim etildi[1]

2.05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari

05-01 – “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi va metodik qo’llanmalar (5.1-rasm).

5.1-rasm. ***“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi va metodik qo’llanmalar***

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 99-sonli buyrug’i asosida 05-02.

05-02 Oylik ish rejasi (Ish jurnali) . Jurnalning titul varag’idan keyingi betga

tavsiyalar joylashtirilgan bo’lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o’quv yilida o’z oldiga qo’ygan asosiy vazifalari yoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o’zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo’lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlari yoritiladi.

2024-2025 yangi o‘quv yilida maktabgacha ta’lim tizimining ASOSIY VAZIFALARI

[1] Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi мaktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i

Yillik asosiy vazifalar O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi.

2024/2025 o‘quv yili uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishda har bir hududning (tuman, shahar, viloyat) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining yillik asosiy vazifalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Mazkur asosiy vazifalarga qo‘shimcha ravishda mavjud sharoit va imkoniyatlardani kelib chiqib, tuman (shahar) bitta, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan bitta vazifa qo‘shimcha kiritilishi tavsiya etiladi.

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish:

“Bolalik akademiyasi”, “Bebbo”, “O‘yin qutisi” kabi elektron platformalardan keng foydalanish;

kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgan seminar-treninglarda ishtirok etish;

master-klasslarda ishtirok etish.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalarni rivojlantirish, kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish va hunarga o‘rgatish bo‘yicha ta’lim muhitini tashkil etishning zamonaviy usullarini keng joriy etishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oila hamkorligidagi amaliy jarayonlarni takomillashtirish.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ularni atrof- muhit bilan tanishtirishda ekologik madaniyat va jismoniy tarbiyalashning zamonaviy samarali shakllari va usullarini amaliyotda keng qo‘llash.

05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to’g’risidagi ma’lumotlar):

Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlar umumiy bitta bo'lishi yoki 3 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi quyidagicha:

Bolalar davomatini qayd etish daftari yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot direktori oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, oy yakunida imzo va muhr qo'yadi.

Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Ro'yxat bo'yicha:	**Qatnov tahlili:**	**ulardan:**	**Direktor:**
Jami kelganlar:		**- kasallik sababli:**	**Hamshira:**
Jami kelmaganlar:		**- oilaviy sharoitiga ko'ra:**	**Tarbiyachi :**

Bolalar davomatini qayd etish daftari

Namuna

Bolalarning kundalik davomati _____ oyi _____ yil

T.r	To'lov %	Bolalarning familiyasi, ismi	Kunlar																											Jami yashirin	Jami qatnashgan kun	Sababli	Sababsiz
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31				
1.																																					
2.																																					
3.																																					
30																																					
Bir bolali:																																					
Ikki va undan ortiq bolali:																																					
JAMI:																																					

Ro'yxat bo'yicha: Qatnov tahlili: ulardan: Direktor:

Ro'yxat bo'yicha: Qatnov tahlili: ulardan: Direktor:

Jami kelganlar: - kasallik sababli: Hamshira:
Jami kelmaganlar: - oilaviy sharoitiga ko'ra: Tarbiyachi :

Filtr daftari tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftarida tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi (pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnoma natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi.

Bola uch kun kelmagan takdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning tashkilotga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.



Filtr

T/r	Bolaning familiyasi, ismi			Sana:				Sana:				Sana:				Sana:			
		Harorati	Terisi	Boshi pedikulyoz	Ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	Boshi pedikulyoz	Ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	Boshi pedikulyoz	Ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	Boshi pedikulyoz	Ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnoma
Tarbiyachining imzosi																	

Patronaj daftari - ushbu daftarni yuritish tashkilot xamshirasiga yuklatildi. Lekin tarbiyachi hamshira bilan hamkorlikda ishlashi va tarbiyalanuvchining kelmaslik sabablarini o'z vaqtida aniqlashda yordam berishi zarur xisoblanadi.

Ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Ota-ona to'g'risidagi ma'lumotlar

T/r	Bolaning familiyasi, ismi	Bolaning tug'ilgan sanasi va yili	Uy manzili va telefon raqami	Bola ota-onasining familiya, ismi, sharifi, ularning ish joyi va telefon raqamlari			
				Ota	Ish joyi	Ona	Ish joyi

05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot

Bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq (o'quv yili o'rtasida) va yakuniy (o'quv yili yakunida).

Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha *erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari* aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✓) bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan natijalar) "ishlamasa", pedagog (tarbiyachi) "Pedagog izohi" ustunida eslatma yozishi lozim.

Bolaning rivojlanish darajasi quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti harakatlari kam yoki umuman namoyon qilmaydi).

B – ba'zida kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari tasodifiy yoki ma'lum vaziyatlarda).

T – tez-tez kuzatiladi (bola asosiy ko'nikma / xatti-harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi).

D – doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xattiharakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi).

Oraliq kuzatish shu tartibga binoan o'tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri (dekabr, yanvar)da o'tkaziladi. Bunday kuzatishni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to'g'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalariga ko'ra, pedagog, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (odatda may oyida) pedagog yakuniy kuzatishni o'tkazadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatishni o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatish bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo'naltirilgan bo'ladi.

bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatish kamida ikki hafta (yoki bir oy) mobaynida olib boriladi.

- pedagog bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.
- pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko'ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi.

6-7 yoshdagi bolalar uchun (MTT bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan so'ng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to'ldiriladi.

4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi,
ismi:_____ yoshi:
_____

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi:
_____ (O'g'il /qiz)

Pedagog: _____
Kuzda to'ldirilgan sana: _____

Qishda to'ldirilgan sana: _____ Bahorda
to'ldirilgan sana: _____.

NAMUNA

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
1.Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi														
1.1 Kichik soha: Yirik motorika														
1	Turli usullarda yuradi (to'g'ri, erkin, ko'rsatilgan yo'nalishda)		✓				✓						✓	
2	Doira bo'lib safda tura oladi		✓				✓						✓	
3	Muvozanatni saqlab yuguradi			✓					✓				✓	
4	Sport narvoni bo'ylab yuqoriga va pastga harakatlanadi		✓					✓				✓		

5	Turgan joyida ikki oyoqda sakraydi	✓					✓						✓	
6	Oldinga harakatlangan holda sakraydi	✓					✓						✓	
7	Yoy ostidan emaklab o'tadi		✓					✓				✓		
8	Badantarbiy mashqlarini qaytaradi		✓					✓				✓		
9	Uch g'ildirakli velosipedda uchadi	✓					✓						✓	

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli buyrug'i asosida MTT tarbiyachisining yuritadigan ish hujjatlarini ayting.
2. Oylik ish rejasi (Ish jurnali)ning tarkibiy qismlarini ayting.
3. Ertalabki doirada bolalar bilan qanday suhbat mavzularini rejalashtirish mumkin?
4. Bolaning rivojlanish xaritasi asosida yil davomida necha marta kuzatuv jarayoni tashkil etiladi?
5. Kunning 2-yarmida qanday vazifalarni rejalashtirish mumkin?
6. MTTda asosiy rivojlanish markazlari va ularning resurs ta'minotini aytib bering.

2-Mavzu: Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish :kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish (80 daqiqa)

Reja:

1.Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish
2.Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish

1.Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish

Bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq (o'quv yili o'rtasida) va yakuniy (o'quv yili yakunida). Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✓) bilan belgilaydi.

Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan natijalar) "ishlamasa", pedagog (tarbiyachi) "Pedagog izohi" ustunida eslatma yozishi lozim

№1 maqsadlarni aniqlashtirish (Oraliq kuzatishdan so'ng)

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

1.

_____

2.

_____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1.

_____

2.

_____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

1.

2.

Bilish jarayonining rivojlanishi

1.

2.

Ijodiy rivojlanish

1.

2.

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va boshlang’ich ta’lim uzluksizligini ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to’ldiriladi (faqat maktabgacha ta’lim tashkiloti bitiruvchilari uchun). Maktabga tayyorlik deganda bolada tayanch kompetensiyalar va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllanganligi tushuniladi. Ushbu xarita MTTning har bir bitiruvchisi uchun to’ldiriladi. Unda bola rivojlanishining beshta yo’nalishi bo’yicha erishgan natijalari ko’rsatiladi. Pedagogga u yoki bu natija qay darajada aks ettirilganligini qayd etish taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi bo’yicha natijalar (bolaning kompetensiyalari) tavsiyalar va istaklar shaklida umumlashtiriladi, ma’lumot uchun yozma ravishda yetkaziladi va ota-onalarga topshiriladi. Bolaning maktabga tayyorligi xaritasi ota-onalarning iltimosiga binoan 1-sinf o’qituvchisiga taqdim etilishi mumkin, bu tavsiya tarzida bo’lib, bolani maktabgacha ta’limdan boshlang’ich ta’lim bosqichiga o’tishi, shuningdek, bolaning 1-sinfda rivojlanishiga shaxsga yo’naltirilgan yondashuvda o’qituvchi uchun qo’llanma bo’lib xizmat qiladi. Ushbu bolaning maktabga tayyorlik xaritasi quyidagilarga imkon beradi: maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonining muvaffaqiyati va samaradorligini aniqlaydi, boshlang’ich sinf o’qituvchisini bolaning boshlang’ich maktabda muvaffaqiyatli moslashishi va yanada samarali rejalashtirish uchun xabardor qiladi.

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi

B – ba’zida kuzatiladi

T – tez-tez kuzatiladi

D – doimiy ravishda kuzatiladi

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi

№ _____maktabgacha ta’lim tashkiloti _____viloyat _____shahar _____tuman

Bolaning familiyasi, ismi va sharifi:

_____

Yoshi: _____ Tug’ilgan sanasi: _____

Jinsi: _____ (O’g’il / Qiz)

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Kuzatildi			
		K	B	T	D
1	Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi				
1.1	O’z imkoniyatlari va yoshi bilan bog’liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko’rsatadi				
1.2	Turli harakatchanlik faolligini uyg’un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				
1.3	Turli hayotiy va o’quv vaziyatlarida mayda motorika ko’nikmalaridan foydalanadi				
1.4	O’z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi qo’llaydi				
1.5	Shaxsiy gigiena ko’nikmalarini				
1.6	Hayot xavfsizligi asoslari qoidalariga rioya qiladi				
2	**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**				
2.1	O’z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to’g’risida tasavvurga ega bo’ladi				

2.2	O’z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi				
2.3	O’zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi				
2.4	Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi				
2.5	Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo’llarini topadi				
3	**Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari**				
3.1	Nutqni eshitadi va tushunadi				
3.2	O’z nutqida to’g’ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap tuzilishlaridan foydalanadi				
3.3	Ikkinchi tilni o’rganishga qiziqishi namoyon qiladi				
3.4	Ikkinchi tilni egallash bo’yicha dastlabki bilimlarini ko’rsatadi				
3.5	Badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo’ladi				
3.6	So’zning lug’aviy, bo’g’inli va fonetik tuzilishi to’g’risida tasavvurga ega bo’ladi				
3.7	Matn mazmunining turli shakllarini mustaqil tuza oladi va qayta hikoya qila oladi				
3.8	Yozishning dastlabki ko’nikmalari va vositalaridan foydalanishni biladi				
4	Bilish jarayonining rivojlanishi				
4.1	Bilim olishga faol qiziqishini namoyon etadi				
4.2	O’quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi 4				
4.3	Predmetlar, voqealar va ko’rinishlar o’rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi				
4.4	Raqamlar, hisoblashni biladi va ularni hayotda qo’llaydi				

4.5	Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi				
4.6	Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi				
4.7	Atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi				
4.8	Atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi				
5	**Ijodiy rivojlanish**				
5.1	San'at va madaniyatga qiziqish bildiradi				
5.2	Milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi				
5.3	San'atning ma'lum bir turiga bo'lgan afzalliklarni mustaqil ravishda ifodalaydi				
5.4	Olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy reja- larini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi				
5.5	Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi				

To'ldirilgan sana: "_____"_____ 20____ yil

Pedagog: _____ _____
(Imzo) (Ism-sharif to'liq)

To'ldirish namunasi

4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi, ismi: Baxtiyorov Amirxon Bobirjon o'g'li

yoshi: 4yosh 4 oylik

Tug'ilgan sanasi: 1-may 2018-yil

Jinsi: o'g'il (O'g'il /Qiz)

Pedagog: Rizaeva Munisxon Maxkamovna

Mo'minova Nargiza Sabitdjanovna

Kuzda to’ldirilgan sana: 28.09.2023-yil

Qishda to’ldirilgan sana: 31.01.2024-yil

Bahorda to’ldirilgan sana: 26.05.2024-yil

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
1.Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi														
1.1 Kichik soha: Yirik motorika														
1	Oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzalarni baland ko’targan holda yuradi		✓					✓					✓	
2	Arqonda muvozanatni saqlagan holda yuradi				✓									
3	Tizzalarini baland ko’targan holda yuguradi			✓					✓					
4	Baland bo’lmagan to’siqlardan xatlaydi		✓					✓					✓	
5	Arg’amchoqdan sakrashga urinadi	✓					✓						✓	.
6	Gimnastika o’rindig’ida qo’llari bilan tortilib emaklaydi		✓					✓					✓	
7	Gimnastika devori bo’ylab tirmashadi		✓					✓				✓		
8	Samokatda uchadi	✓					✓				✓			Ko’p kasal bo’ldi. Oilada hamda jismoniy tarbiya yo’riqchisi bilan ishlash
1.2 Kichik soha: Mayda motorika														
1	Kiyim, poyabzal tugmalarni mustaqil ravishda qadaydi va ochadi		✓					✓					✓	
2	Namuna asosida ipga kichik, o’rta va yirik munchoqlarni tizib chiqadi		✓					✓					✓	
3	Qulf, zulfinlarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi			✓					✓				✓	
4	Mayda predmetlarni burab yopadi va ochadi (konstruktor detallari)		✓					✓					✓	
5	Konstruktorning katta va kichik qismlaridan turli narsalar yasaydi		✓					✓				✓		
6	Namuna asosida to’g’ri chiziq va aylana chizadi	✓					✓				✓			Yangi kelgan. Oilada, psixolog, tarbiyachi bilan ishlash
7	Berilgan chiziqlar bo’yicha qog’oz, mato, salfetkani taxlaydi		✓					✓				✓		
8	Berilgan chiziq bo’ylab qaychi yordamida qog’ozni kesadi	✓					✓				✓			Yangi kelgan. Oilada, psixolog, tarbiyachi bilan ishlash

1.3 Kichik soha: Sensomotorika														
1	To’pni o’ng va chap qo’llarini galma-galdan ishlatib yerga uradi	✓					✓				✓			Ko’p kasal bo’ldi. Oilada hamda jismoniy tarbiya yo’riqchisi bilan ishlash.
2	O’ng va chap tomonga galma-galdan aylanadi		✓					✓					✓	
3	Turli yuza va teksturalarni farqlaydi			✓					✓				✓	
4	Matrap yordamida suzadigan va uchadigan mayda jismlarni tutib oladi		✓					✓					✓	
5	Sovunli pufakchalarni puflaydi		✓					✓					✓	
1.4 Kichik soha: Sog’lom turmush tarzi va xavfsizlik														
1	Vitaminlar va sog’lom ovqatlanish foydasi to’g’risida biladi		✓					✓					✓	
2	Ovqatdan oldin qo’llarini yuvadi		✓					✓					✓	
3	Sanchqidan to’g’ri foydalanadi		✓					✓					✓	
4	Tashqi ko’rinishini tartibga keltiradi		✓					✓					✓	
5	Xojatxonada o’zini eplaydi			✓					✓				✓	
6	Yordam so’ray oladi		✓					✓					✓	
7	Xavfli bo’lishi mumkin bo’lgan joylar, predmetlarni aytadi (zina, ayvon, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori-darmon, o’tkir asboblar, elektr toki)	✓					✓				✓			Yngi kelgan. Oilada, psixolog, tarbiyachi bilan ishlash

2.Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo’riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo’yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o’zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo’yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi, indikator asosida ishlar aniq belgilanadi.

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish –suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko’nikma va malakalari (bola kompetensiyasi) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma’lumotlar jamlanadi

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirishni o’tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- Yakka ish jarayoni bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo’naltirilgan bo’ladi.
- Yakka ish jarayoni bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun faoliyatlar kamida 3-4 mavzular yoki sohani qamrab olishi lozim
- Yakka ish jarayonidagi holat hamda bola to’g’risidagi ma’lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.
- Yakka ish jarayonida pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozim.

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish suhbat,topshiriq, ta’limiy o‘yinlar orqali olib borilishi maqsadga muvofiqdir

Nazorat savollari:

1.Tarbiyachi bola yutuqlari xaritasini yiliga necha marta to’ldiradi?

2.Rivojlanish xaritasida yillik yakuniy hisobotlar qanday rasmiylashtiriladi?

3.Bolaning rivojlanish xaritasi asosida yil davomida necha marta kuzatuv-tahlil jarayoni tashkil etiladi?

4.Rivojlanish sohalaridagi kichik sohalarning ta’limiy faoliyatlardagi integrallashuvi qanday pedagogik jarayonlarda kuzatiladi?

5.Rivojlanish xaritasida oraliq nazorat yakunlarida maqsad qanday belgilanadi?

6.Rivojlanish xaritasida yakuniy nazorat yakunlarida maqsad qanday belgilanadi?

3-Mavzu:Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali) yuritish tartibi (80 daqiqa)

Reja:

1.Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali) tuzilmasi.
2.Tarbiyachining ish jurnalida ta’limiy-tarbiyaviy faoliyati aks ettirishi

1.Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali) tuzilmasi.



05-02. Oylik ish reja (Ish jurnali)

Titul varag‘i namunasi

_____ shahar (viloyat)
_____ tumani “_____” nomli
_____ - maktabgacha ta’lim tashkiloti
_____ - _____ guruh
tarbiyachisining
20 _ - 20 _ o‘quv yili uchun

Ish jurnali

Tarbiyachilar: _____
(F.I.Sh.)
Telefon raqami:_____

Tarbiyachilarga tavsiyalar

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining ushbu ish jurnali tashkilotda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatni yuritishdan maqsad, O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi talablarini bajarish asosida ertalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to’g’ri tashkil etishning negizi hisoblanib, bunda tarbiyachilar ta’limiy vazifalar, bolalar bilan birgalikda olib boriladigan ish shakllari, rivojlantiruvchi muhitga kiritish lozim bo’lgan o’zgartirishlarni belgilab beradi.

Rejalashtirish ta’lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, bolalarga axborot va jismoniy vazifalarni me’yorlash imkonini beradi.

Ish rejasining to’laqonli bajarilishini tahlil qilish, bolaning rivojlanish sur’atini kuzatish va ular uchun yanada qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Jurnalning titul varag’idan keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo’lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o’quv yilida o’z oldiga qo’ygan asosiy vazifalariyoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o’zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo’lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlarni yoritadi.

MTTning ish vaqti va guruh yoshiga qarab kun tartibi va mashg’ulotlar jadvali ta’lim tashkilotining 1-sonli pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Bir oy uchun ikki xil tartibda ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar *(guruhdagi tarbiyalanuvchilar soniga yetarli bo’lishi lozim)* bilan ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtiriladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarini rejalashtirishda tarbiyalanuvchilar yoshini inobatga olgan holda oldindan kartotekalar tayyorlab olish lozim (bolakadem.uz elektron platformasidan tayyor kartotekadan foydalanish mumkin).

Ertalabki qabul — tarbiyachining ish jurnalida berilgan ushbu qismda bolalarni birlamchi tibbiy ko’rikdan (filtr) o’tkazish, bolaning holati haqidagi ma’lumotlarni ota-onalardan olish, davomatga belgilab qabulni yakunlash va bolalarning hoxishlariga qarab mehnat turlariga jalb etish tadbirlari amalga oshiriladi.

O’yinlar – Tarbiyalanuvchilarning hoxish-istaklariga ko’ra, hafta mavzusi bo’yicha ta’limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli, sahnalashtirish o’yinlarining nomi qayd etiladi;

Bolalar bilan suhbat - tarbiyachining ish jurnalida ta’lim-tarbiya faoliyati aks ettirilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi, hafta mavzusining maqsadi yoritiladi. Ertalabki qabul jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi 5 ta mavzuda suhbat olib borishlari tavsiya etiladi:

1. Dushanba – “Madaniy-gigiyenik ko’nikmalar” (*bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o’rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to’g’ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to’g’ri munosabatda bo’lishga o’rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi*).
2. Seshanba – “Odob axloq qoidalari” (*bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlarga hurmat bilan munosabatda bo’lish,salomlashish, do’stlashish, sog’lom hayot faoliyatiga o’rgatish, mehnatsevarlik, to’g’ri so’zlik, kamtarlik va b.q*.);
3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik” (*bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o’tkaziladi*).
4. Payshanba – “Yo’l harakati qoidalari” (*bolalar ishtirokidagi yo’l harakati qoidalarini o’rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo’lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi*).
5. Juma – “Bola xayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida *(haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo’lganligi sababli, bolalar uyda yolg’iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko’ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho’milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to’g’risida suhbat o’tkiziladi).*

Ertalabki badantarbiya mashqlari (*yuqoridagi uchinchi xat boshida ko’rsatilgan ma’lumotga qarang*).

Ta’lim-tarbiya jarayoni

Oy va hafta mavzusiga ko’ra ta’lim-tarbiya jarayoni rejalashtiriladi.

Ertalabki davra suhbati (umumiy gurux bilan**) –** tarbiyalanuvchilar hafta mavzusi bilan tanishtiriladi, mavzu doirasida yangiliklarni bilishlari hamda

rivojlantirish markazlarda qanday faoliyat turlari bilan shug’ullanishlari yuzasidan tanishtirilib o’tiladi*(tarbiyachiga markazlar faoliyatini yo’lga qo’yishda otaonalar bilan ishlashi tavsiya etiladi*).

Umumiy guruh bo’lib ishlash – frontal mashg’ulot bo’lib, unga nutq, o’qish va yozish malakalarini rivojlantirish, elementar matematika; savodxonlikka o’rgatish; xorijiy til; jismoniy tarbiya; musiqa faoliyatlari hamda xoreografiya mashg’ulotlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar bilan kelishgan holda, ushbu frontal mashg’ulotlarni olib borish vaqti ishlab chiqiladi va 1-chi pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Markazlardagi faoliyatlar – ta’lim faoliyati mavzuli rejalashtirish asosida tashkil etilib, har bir yosh guruhlari uchun alohida oy va hafta mavzulari aks ettiriladi hamda beshta rivojlantirish markazlarida ta’limiy faoliyat turlari tashkil etiladi:

- *Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;*
- *Syujetli-rolli o’yinlar va sahnalashtirish markazi;*
- *Til va nutq markazi;*
- *Fan va tabiat markazi;*
- *San’at markazi.*

Namunaviy rejalashtirish berilgan markazlardagi faoliyatlarga, hudud (shahar)larning ichki imkoniyatlarini inobatga olib yoki ijodiy yondoshgan holda (*asosiy oy mavzusidan chiqib ketilmaydi*) o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilganda markazlardagi faoliyat ish daftarida qayd etiladi.

29

RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR TANLOVI ASOSIDA HAFTALIK MAVZU BO`YICHA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI

	Rivojlanish markazlari	Ta`lim va tarbiya jarayoni	Resusr ta`minoti
DUSHANBA	Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi	Mening Andijon shahrim	Qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar
	Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi		
	Til va nutq markazi	Mening Andijon shahrim	Syujetli rasmlar, AKT, predmetli rasmlar
	Fan va tabiat markazi		
	San'at markazi		

Ish jurnalining sayr bo’limi 5 qismdan iborat.

Kuzatish – ikki turdan iborat bo’lib, jonli va jonsiz tabiatni kuzatadi. Obyektga mos bo’lgan mehnat turini tanlashi kerak (*o’z-o’ziga hizmat, xo’jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo’l mehnati (katta va tayyorlov guruhlarda o’tkaziladi*).

Mehnat - ushbu qismda tarbiyachi maydonchada olib borilishi mumkin bo’lgan bolalarning yoshiga mos mehnat turlarini tanlaydi. Maydonchaga chiqishda albatta mehnat qurollarini ham olib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o’yin – jismoniy tarbiya yo’riqchisi tomonidan o’rgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo’lib, asosan 1 ta harakatli o’yin rejalashtiriladi va qayd etiladi.

Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg’itish, turli usullarda yurishda kamchiliklar bo’lgan bolalar bilan olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo’lsa o’sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Ixtiyoriy o’yinlar – bolalarning hoxish-istaklariga ko’ra deb qayd etiladi.

Mavzu		**O‘zbekiston –mening Vatanim**	
Davr		**Sentyabr oyining 1-xaftasi-4.09 dan 8.09 gacha**	
Faoliyat turi	**BIRINCHI SAYR** **Dushanba**	Kuzatish	**Gulzorni kuzatish**
		Mehnat	**Maydoncha(gulzor)dagi so`ligan gul va barglarni tartiblash**
		Asosiy harakat turlarini mustahkamlash	**Nosirova M,Jamolov D bilan turli usullar bilan arg‘imchoqda sakrashni mashq qilish**
		Harakatli o‘yin	**Oq terakmi, ko‘k terak, Raqamga moslab birlash**
		Erkin o‘yin faoliyati	**Qum, suv, loy, sport o‘yinchoqlar bilan ta’limiy o‘yinlar**

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish

(*taxminan 13:00 dan 15:00gacha, takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarda bolalarning uyqusiz vaqtida*).

To’garak ishlari – (MTTning Kuzatuv kengashi qaroriga ko’ra turli to’garaklar kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladi.

Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko’ra tanlanadi.

Pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo’riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo’yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o’zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo’yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbati o’tilganmavzu taxlili (refleksiya)– ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko’nikma va malakalari (*bola kompetensiyasi*) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma’lumot beradi (*refleksiya*).

Kechki soat

(*taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli MTT uchun*)

Ikkinchi sayrda – ixtiyoriy o’yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi *(tarbiyalanuvchining o’zlashtirishi, ta’lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi, bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indekatori bo’yicha (bola shaxsiga tegishli ma’lumot yakka holatda o’tkaziladi) mavzularda).*

Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir nechta ixtiyoriy o’yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o’tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to’ldiriladi.

Guruh yoshiga va MTTning ish vaqtiga qarab **kun tartibi** belgilanadi. Bir oy uchun 2 ta **ertalabki badan tarbiya** komplekslari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar bilan ertalabki badan tarbiya mashqlari bajarilishiga e’tibor qaratilishi lozim. Ertalabki badan tarbiya mashqlarini alohida daftarga yozib borish yoki oldindan kartotekalar tayyorlab olish maqsadga muvofiq.

Izoh: yuqorida ko’rsatilgan Ta’limiy faoliyatlar jadvaliga takomillashtirilgan

“Ilk qadam” davlat o’quv dasturiga muvofiq 1-sonli pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan faoliyatlar turlarining haftalik taqsimoti kiritiladi**.**

ERTALABKI BADANTARBIYA KOMPLEKSI

OY	**HAFTA**	**ERTALABKI BADAN TARBIYA KOMPLEKSI**
Sentyabr	1-2	1 - kompleks
	3-4	2 - kompleks
Oktyabr	1-2	3 - kompleks
	3-4	4 - kompleks
Noyabr	1-2	5 - kompleks
	3-4	6 - kompleks
Dekabr	1-2	7 - kompleks
	3-4	8 - kompleks
Yanvar	1-2	9 - kompleks
	3-4	10 - kompleks
Fevral	1-2	11 - kompleks
	3-4	12 - kompleks
Mart	1-2	13 - kompleks
	3-4	14 - kompleks
Aprel	1-2	15 - kompleks
	3-4	16 - kompleks
May	1-2	17 - kompleks
	3-4	18 - kompleks

Oy mavzusi: Qish
Hafta mavzusi: Qish.Konstitutsiya kuni
Maqsad:_____
_____
Muddat: 02.12.dan 06.12 2024 gacha-1-hafta

TA`LIMIY TARBIYAVIY FAOLIYAT	RIVOJLANISH SOHALARI BO‘YICHA MAQSADLAR	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi		
		Ijtimoiy-hissiy rivojlanish		
		Nutq,muloqot, o‘qish va yozish malakalari		
		Bilish jarayonining rivojlanishi		
		Ijodiy rivojlanish		
	ERTALABKI DAVR	Dushanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	
			Bolalar bilan suhbat	
			Ertalabki badan tarbiya	
		Seshabna	Ertalabki qabul O‘yinlar	
			Bolalar bilan suhbat	
			Ertalabki badan tarbiya	
		Chorshanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	
			Bolalar bilan suhbat	
			Ertalabki badan tarbiya	
		Payshanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	
			Bolalar bilan suhbat	
			Ertalabki badan tarbiya	
		Juma	Ertalabki qabul O‘yinlar	
			Bolalar bilan suhbat	
			Ertalabki badan tarbiya	

Oy mavzusi: Yo`l harakati havfsizligi.Hayot havfsizligi asoslari

Hafta mavzusi: Ehtiyotkor piyoda haftasi

Maqsad: Bolalarga qopchadagi o`yinchoqlarni paypaslab aytib bera olish faoliyatini, jarayonda yaxshi yoki yomon hatti-harakatlarga baho bearishga undovchi nazarni, “T”,”A”,”O”,”S” tovushlar farqini so`zlar orqali farqlash, sochiluvchan predmetlar guruhini taqqoslash, rangoli qog‘oz materiallardan mashina ,yo`l belgisi applikativ bezaklar yaratish malakasini shakllantirish .

Muddat: 2-hafta -11.11.2024dan 15.11.2024 gacha

TA`LIMIY TARBIYAVIY FAOLIYAT	RIVOJLANISH SOHALARI BO‘YICHA	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi	Qopchadagi o`yinchoqlarni paypaslab aytib bera olish
		Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Yashi yoki yomon hatti-harakatlarga baho bearishga qodir
		Nutq,muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Tovushlar farqini biladi
		Bilish jarayonining rivojlanishi	Predmetlar guruhini taqqoslaydi
		Ijodiy rivojlanish	Qog‘oz va tabiiy materiallardan applikativ bezaklar yaratadi (tabriknomalar, xatcho‘plar)

	ERTALABKI DAVR	Dushanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	Filtr,tabel va “Mening tanlovim” markazga yo‘naltirish
				“Yulduz yo‘lini top”, “Koinot” stol o‘yini
			Bolalar bilan suhbat	Imo –ishora bilan muloqat madaniyati-suhbat
			Ertalabki badan tarbiya	Ertalabki badan tarbiya kompleksi №16
		Seshabna	Ertalabki qabul O‘yinlar	Filtr,tabel va “Mening tanlovim” markazga yo‘naltirish
				“Raqamli domino”, “Sonni qo‘shnisini top” stol o‘yini
			Bolalar bilan suhbat	Ilm olish madaniyati-suhbat
			Ertalabki badan tarbiya	Ertalabki badan tarbiya kompleksi №16
		Chorshanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	Filtr,tabel va “Mening tanlovim” markazga yo‘naltirish
				“L tovushiga so‘z top”, “Koinot” stol o‘yini
			Bolalar bilan suhbat	Yashash huquqi-suhbat
			Ertalabki badan tarbiya	Ertalabki badan tarbiya kompleksi №16
		Payshanba	Ertalabki qabul O‘yinlar	Filtr,tabel va “Mening tanlovim” markazga yo‘naltirish
				“To‘rtinchisi ortiqcha”, “Bayram” stol o‘yini
			Bolalar bilan suhbat	Quyosh tizimi-galaktika-suhbat
			Ertalabki badan tarbiya	Ertalabki badan tarbiya kompleksi №16
		Juma	Ertalabki qabul O‘yinlar	Filtr,tabel va “Mening tanlovim” markazga yo‘naltirish
				“Mehmonni top”, “Mevali-sudoku” stol o‘yini
			Bolalar bilan suhbat	Tabiiy ofat-“Zilzila”-suhbat
			Ertalabki badan tarbiya	Ertalabki badan tarbiya kompleksi №16

Tezis shaklida ishlanma namunasi

Oy mavzusi: Yer sayyorasi –umumiy uyimiz

Katta guruh: Umumiy guruhli ta’lim va tarbiya jarayonini: Nutq o’stirish

MAVZU: YER KUNI .

Maqsad:Bolalarni obrazli va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, rivojlantiruvchi markazlarda Yer sayyorasini asrash , ekologik tarbiya haqidagi bilimlarini oshirish.Bolalar nutqida **sayyora, quyosh, oymoma** so’zlari bilan boyitish. Maishiy chiqindilarni alohida yig’ish va yo’q qilish tizimining tamoyillari bilan tanishish. Ularni kundalik hayotida isrofgarchilikka qarshi amaliy choralar ko’rishga ekologik tarbiya berish.

Resurslar: Plakat, yulduzchalar, sahnalashtirish uchun atributlar.Uskunalar: har xil chiqindilar tasvirlangan rasmlar, har xil materiallardan yasalgan buyumlar: plastmassa, sumkalar, gazetalar, metall konstruksiya qismlari va boshqalar.

Chiqindilarni saralash uchun yashil, sariq, havorang rangli qutilar hamda ramzli beshta quti.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Yer sayyorasi kuni 22-aprelda nishonlanadi. Yer sayyorasi xakida ertak aytib beraman.

2. Har yili har bir odamdan o’rtacha 500 kg ga yaqin chiqindi tashlanadi. Har kuni biz qutilar, qog’oz, shishalar va boshqalarni tashlaymiz.Siz allaqachon bilasizki, tabiatni himoya qilish kerak. Axir sayyoramizda axlat tobora ko’payib bormoqda. Bu muammo bizning shahar uchun ham dolzarbdir

3. Maishiy chiqindilarni alohida to’plash va olib chiqib ketish uchun to’rt turdagi konteynerlar o’rnatish

4. O’yin: “Chiqindilarni tartibla”.

Qo’shimcha: Bolalarga chiqindilarni tartiblashni oildada va MTTda ham olib borish

E’tiborga molik jihati: Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muntazam ishni oila hamkorligida olib borish.Bolalarni chiqindilarni tartiblashda hayot havfsizligiga rioya etish.

Nazorat savollari:

1.Ertalabki davrada qanday pedagogik jarayonlar olib boriladi?

2.Ertalabki badan tarbiya komplekslari qayerdan olinadi va qanday rejalashtiriladi?

3.Tarbiyachi sayr jarayonida qanday mehnat turlarini rejalashtirishi mumkin?

4.Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvini loyihalab bering.

5.Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali)da qanday ta’lim-tarbiya faoliyatlarining ish mazmuni qayd etiladi?

6.Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali)ning tarkibiy qismlarini ayting.

4-mavzu: Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish (80daqiqa)

Reja:

1.O’quv yili davomida olib boriladigan pedagogik kuzatishlar va ularni qayd etish.
2. Kuzatuv asosida yil boshida qo’yilgan vazifalar, baholanishi.

1.O‘quv yili davomida olib boriladigan pedagogik kuzatishlar va ularni qayd etish.

Maktabga tayyorlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohalari kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta’lim tashkilotining har bir bitiruvchisi uchun to’ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) bo’yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

Kuzatish – bolalar rivojlanishidagi ijobiy o’zgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaqtda, butun yil davomida hamda to’plangan ma’lumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a’zolari bilan o’zaro aloqalarning eng maqbul strategiyasini tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

Kuzatish – maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o’rganishi haqida ma’lumot to’plashning samarali usuli

1-qadam. Kuzat – axborot yig’ish jarayoni.

2-qadam. Tahlil qil – kuzatilganlar mazmun-mohiyati haqida savol berish.

3-qadam. Rejalashtir – ta’lim olish va rivojlanishni davom ettirish uchun keyingi qadamlarni rejalashtirish.

4-qadam. Qo’lla – o’ylangan rejani amaliyotga tatbiq qilish.

5-qadam. Anglash (refleksiyaga erishish) – rejaning unumdorligini baholash

Kuzatish – bu bolaning ishlayotgan yoki o’ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo’yicha qiziqishlari, ko’nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o’zgarishlarni aniqlaydi.

Kuzatishning ikki turi mavjud – rasmiy va tasodifan (norasmiy).

2.Kuzatuv asosida yil boshida qo’yilgan vazifalar, baholanishi.

Bolani norasmiy kuzatish orqali unga bu haqida oldindan xabar bermasdan juda ko’p ma’lumot olsa bo’ladi (masalan, bola tabiiy ravishda o’yinga jalb qilinganida). Rasmiy kuzatish bolani asabiylashtirishi yoki g’ayriixtiyoriy yo’l tutishiga olib kelishi mumkin, bola esa boshqa bolalar bilan umuman o’ynamasligi yoki muloqotda bo’lmasligi ehtimoli bor. Rasmiy kuzatish ko’proq bolaning

muayyan ko’nikma yoki malakasining rivojlanishini yoki uning bilim va tushunchalarini kuzatib borishga qaratiladi

“Pedagogik kuzatishni to’g’ri olib borish uchun quyidagi tamoyillardan foydalanish lozim:

● kuzatuv bola uchun tanish holatda o’tkaziladi va bolaga yordam berishga qaratilgan bo’ladi;

● kuzatuv 2 hafta (yoki bir oy) davomida o’tkazilishi kerak, chunki bu bola rivojlanishi haqida xolisona tasavvur hosil qilishga olib keladi;

● bola haqida qo’shimcha ma’lumotlarni ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqa xodimlari bilan bo’lgan suhbatlardan olish mumkin;

Bolaning moyilligi, qiziqishlari, muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim. pedagogning o’quv yili yakunida yozadigan yillik hisoboti shakli (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari)

I. MTT (guruh)ning umumiy tavsifi:

1. MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Ulardan: o’g’il bolalar _____ va qiz bolalar _____.

2. Hissiy muhit tavsifi: ijobiy, salbiy (*tagiga chiziq qilib belgilang*)

II. Joriy o’quv yilining maqsad va vazifalari. Ushbu bo’limda siz maktabgacha ta’lim tashkilotining rejasida o’quv yili uchun belgilangan asosiy vazifalarni ko’rsatib o’tishingiz kerak, shuningdek, "Ilk qadam" davlat o’quv dasturiga muvofiq bolalar bilan tashkil etilgan faoliyat turlarini, o’tkazilgan tibbiy va pedagogik ko’riklari natijalarini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar pedagog ta’limning yangi shakllaridan foydalangan bo’lsa, ishini tavsiflaydi, masalan, "kviling" texnologiyasi, "Tanlash huquqi" texnologiyasi (bu yerda bola o’z xohishiga ko’ra rivojlanish markazini tanlaydi), agar boshqa texnologiyalar bo’lsa, uni ko’rsatib o’tadi.

O’quv yiliga asosiy vazifalar:

_____

_____

_____

_____

_____

Tibbiy ko’riklar o’tkazildi (MTTda tarbiyalanuvchilar qaysi turdagi tibbiy ko’rikdan o’tkazilgan, masalan, tor doirali mutaxassislarning qaysi toifadagi mutaxassislari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rik amalga oshirilganligini ko’rsatish lozim)

_____

_____

III. O’tkazilagan tadbirlar tavsifi (bu bo’limda MTT (guruh)da nechta tadbir va ertaliklar o’tkazganligini bayon etiladi.

_____

_____

_____

IV. Tarbiyalanuvchilarning tanlov va boshqa musobaqalardagi ishtiroki bo’yicha natijalar (bu bo’limda tanlov yoki musobaqaning nomi (turi)ni ko’rsatib, bolaning familiyasi va ismini yoziladi va natijalari bo’yicha izoh beriladi)

_____

_____

_____

_____

V. Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari (bu bo’limda ota-onalar ishtirokida o’tkazilgan tadbirlar, majlislar, mavzuli uchrashuvlar, konsultatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumot va xabarlar bo’yicha bo’lib o’tgan muhokamalar yoziladi)

_____

_____

_____

_____

_____

_____

VI. Rivojlantiruvchi muhitni yangilash bo’yicha amalga oshirilgan ishlar (bu bo’limda pedagog rivojlantiruvchi markazlar bilan amalga oshirgan ishlarini ko’rsatib o’tadi: qaysi o’yin va o’yinchoqlarni almashtirgan; qanday didaktik o’yinlar va tarqatma materiallar bilan boyitilgan va ularning bolalarda bilim va ko’inkmalarni shakllantirishdagi o’rni. Shuningdek, rivojlantirish markazlarning yangilanishi va boyitilganligi bolani rivojlanish sohalari bo’yicha rivojlanishida qanday natijalar berganligini ham ko’rsatib o’tish lozim.

_____

_____

_____

_____

_____

VII. O’quv yili yakuniga “Ilk qadam” davlat o’quv dasturini o’zlashtirish natijalari (bu yerda pedagog bolaning har bir rivojlanish sohalarini o’zlashtirish darajasini ko’rsatib, bolalarning rivojlanish xaritalarini tahlil qiladi va quyida keltirilgan jadval asosida ko’rsatkichlarni umumlashtiradi).

MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Rivojlanish sohasi	**Bolalarning rivojlanish xususiyatlarining namoyon bo’lish darajasi**			
	K (kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi) bola soni ko’rsatiladi	**V** (ba’zida kuzatiladi) bola soni ko’rsatiladi	**T** (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko’rsatiladi	**D** (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko’rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi				
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari				
Bilish jarayonining rivojlanishi				
Ijodiy rivojlanish				

VIII. O'quv yili yakuniga "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini o'zlashtirish natijalari – (bu yerda pedagog (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari) majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolaning har bir rivojlanish sohalarini o'zlashtirish darajasini ko'rsatib, bolalarning rivojlanish xaritalarini tahlil qiladi va quyida keltirilgan jadval asosida ko'rsatkichlarni umumlashtiradi).

MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Rivojlanish sohalari kompetensiyalari	**Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarning shakllanishi**			
	K (kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	**V** (ba'zida kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	**T** (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	**D** (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi				
O'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi				
Turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				
Turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foy- dalanadi				
O'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi				

Shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini qo‘llaydi				
Hayot xavfsizligi asoslari qoidalariga rioya qiladi				
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
O‘z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi				
O‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi				
O‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi				
Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi				
Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo‘llarini topadi				
Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari				
Nutqni eshitadi va tushunadi				
O‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap tuzilishlaridan foydalanadi				
Ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqishi namoyon qiladi				
Ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi				
Badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo‘ladi				
So‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi				
Matn mazmunining turli shakllarini mustaqil tuza oladi va qayta hikoya qila oladi				
Bilish jarayonining rivojlanishi				
Bilim olishga faol qiziqishini namoyon etadi				

O‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi				
Predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi				
Raqamlar, hisoblashni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi				
Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi				
Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi				
Ijodiy rivojlanish				
San’at va madaniyatga qiziqish bildiradi				
Milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi				
San'atning ma'lum bir turiga bo‘lgan afzalliklarni mustaqil ravishda ifoda- laydi				
Olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy reja- larini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi				
Insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi				

IX. O’z ustida ishlash. Bu yerda pedagoglar (tarbiyachi, defektolog, psixolog va musiqa rahbari) o’z ustida ishlash maqsadida malaka oshirish kurslaridan o’tganligi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalangan elektron ta’lim platformalarini ko’rsatadi, shuningdek kasbiy kompetensiyasini oshirish borasida amalga oshirgan ishlari, ishtirok etgan seminar va treninglar mavzularini yozadi. Shuningdek, tuman (shahar) miqiyosida o’tkazilgan metodik birlashmalarda ishtiroki va u yerda orttirgan bilim va ko’nikmalarini ham ko’rsatib o’tishi maqsadga muvofiq. Shular bilan bir qatorda pedagog turli darajada tashkil

etilgan vebinarlar haqida, o’z tajribasini amaliyotga joriy etgan bo’lsa (kitob, metodik qo’llanmalar va boshqa) ularni ham ko’rsatib o’tishi tavsiya etiladi.

_____

_____

_____

_____

X. **Keyingi o’quv yiliga reja.** (bu yerda tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari yillik hisobotdan kelib chiqib, qilingan tahlillarga asosan qisqa vazifalar belgilaydi. Vazifalar bolalarning rivojlanish xaritalari bo’yicha qilingan tahlilga asosan belgilanishi tavsiya etiladi. Masalan: ijtimoiy-xissiy rivojlanish sohasida — bolalarni muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli usullarini o’rganishga yordam berish, muzokaralar olib borish, yangi aloqalarni o’rnatish, (har bir hudud uchun ikkitadan ko’p bo’lmagan vazifa) ota-onalar uchun tashkiliy tadbirlarni tashkil etish va turli loyihalarda ularning ishtirokini oshirish).

Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi

1. _____
_____
2. _____
_____

Ijtimoiy-xissiy rivojlanish

1. _____
_____
2. _____
_____

Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari

1. _____
_____
2. _____
_____

Bilish jarayonining rivojlanishi

1.
_____
_____
2. _____
_____

Ijodiy rivojlanishi

1. _____
_____
2. _____
_____

Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari

1. _____
_____
2. _____
_____

XI. O’z-o’zining faoliyatini baholash (bu erda tarbiyachi, defektolog, psixolog va musiqa rahbari o’z kasbiy faoliyatini jadvalda ko’rsatilgan quyidagi mezonlar bo’yicha baholaydi (ustunda, baholash ko’rsatilgan **reproduktiv**, **samarali**, **ijodiy** so’zi bilan yoki **“+”** belgisi bilan belgilanadi)

Darajasi	**Kompetensiya**	**Bahosi** **(tarbiyachi, defektolog,** **psixolog, musiqa rahbari va metodist)**
Reproduktiv (past)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida berilgan namuna bo’yicha faoliyatini tashkil etadi	
Samarali (o’rta)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini tashkil etadi va turli ta’lim resurslarini o’rganadi	
Ijodiy (yuqori)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini turli ta’lim resurslaridan foydalangan holda tashkil etadi. Mustaqil ravishda “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida mavzuli rejalarni ishlab chiqadi	

Tarbiyachi_____ _
(imzo) (F.I.Sh)

«_____»_____20___ y.

2.Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo'yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o'zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo'yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi, indikator asosida ishlar aniq belgilanadi.

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish –suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalari (bola kompetensiyasi) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma'lumotlar jamlanadi

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirishni o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- Yakka ish jarayoni bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo'naltirilgan bo'ladi.
- Yakka ish jarayoni bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun faoliyatlar kamida 3-4 mavzular yoki sohani qamrab olishi lozim
- Yakka ish jarayonidagi holat hamda bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.
- Yakka ish jarayonida pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish suhbat,topshiriq, ta'limiy o'yinlar orqali olib borilishi maqsadga muvofiqdir

Tarbiyalanuvchi portfoliosining tuzilmasi

Bola ism va familiyasi ko'rsatilgan titul varaq

-Tarjimai holda bola necha yoshda yura boshlagani, uning birinchi aytgan so'zi nima bo'lgani, aka-uka yoki opa-singillari borligi, qaysi MTTga borganini ko'rsatsa bo'ladi. Oxirida bolaning yaxshi ko'rgan mashg'ulotlari (MTTdagi o'yinlar ham) qisqacha sanab o'tiladi.

"Mening oilam va bizning bayramlarimiz

-Ota-onalar va boshqa oila a’zolarning ismlari, ularning tug’ilgan kunlari va boshqa oilaviy bayramlar yoziladi. Ota-onalarning to’y kuni sanasi, oila a’zolarining qiziqishlarini yozish, shajara daraxtini chizish ham maqsadga muvofiq

“Mening yutuqlarim”

Pedagoglar alohida sahifada bola erishgan natijalarga olib kelgan rivojlanish jarayonini tasvirlaydilar. **MTT pedagogi faoliyatini baholash mezonlari** *1-jadval*

№	Mezonlar	Umumiy ball
I.Guruh tavsifi		**25 ball**
Bolalar davomati 1.1.50 % 5 ball 1.2.ot 51-75% 10 ball 1.3.ot 76-100% 15 ball		
Muhitning qulayligi: 1.4.Qulay va ijobiy muhitning tashkil etilganligi – 10 ball 1.5.Qulay va ijobiy muhitning tashkil etilmaganligi – 1 ball		
II. O‘quv yiliga qo‘yilgan maqsad va vazifalar		**5 ball**
2.1. Taqdim etilgan tavsiyalar va bolalarning rivojlanish xususiyatlariga muvofiq o'quv yili uchun vazifalar belgilanganligi – 5 ball 2.2. O'quv yili uchun vazifalar taqdim etilgan tavsiyalar va bolalarning rivojlanish xususiyatlariga muvofiq belgilanmaganligi – 0 ball		
III. Amalga oshirilgan tadbirlar tavsifi		**20 ball**
3.1. Tadbirlar guruh va MTT rejasi asosida to‘liq amalga oshirilgan – 15 ball		
3.2. Tadbirlar guruh va MTT rejasi asosida qisman amalga oshirilgan – 5 ball		
IV. Bolalarning tanlovlarda ishtiroki		**25 ball**

4.1. Tuman miqiyosida o’tkazilgan tanlov va musobaqalarda guruh bolalarining ishtiroki – 2 ball	
4.2. Viloyat miqiyosida o’tkazilgan tanlov va musobaqalarda guruh bolalarining ishtiroki – 5 ball	
4.3. Respublika miqiyosida o’tkazilgan tanlov va musobaqalarda guruh bolalarining ishtiroki – 8 ball	
4.4. Xalqaro tanlov va musobaqalarda guruh bolalarining ishtiroki – 10 ball	
V. Ota-onalar bilan hamkorlik ishlar	**15 ball**
5.1. Rejaga muvofiq ota-onalar bilan olib borilgan ish – 10 ball	
5.2. Rejaga qisman ota-onalar bilan olib borilgan ish – 5 ball	
VI. Rivojlanish markazlarini yangilash va boyitishdagi ishlar	**15 ball**
6.1. Guruhda bolalar uchun 5 ta rivojlanish markazlari yaratilgan haftada bir marta yangilanadi – 10 ball	
6.2. Guruhda bolalar uchun 5 ta rivojlanish markazlari yaratilgan qisman yangilanadi – 5 ball	
VII. O’quv yili yakuniga “Ilk qadam” davlat o’quv dasturini o’zlashtirish natijalari	**16 ball**
7.1. 100% bolalarda sohalar bo'yicha rivojlanish sur'ati barqaror darajada kuzatiladi – 10 ball	
7.2. 50% bolalarda sohalar bo'yicha rivojlanish sur'ati barqaror darajada kuzatiladi – 5 ball	
7.3. 30% bolalarda sohalar bo'yicha rivojlanish sur'ati barqaror darajada kuzatiladi – 1 ball	
VIII. O’z ustida ishlash	**24 ball**
8.1. Reja asosida malaka oshirish kurslaridan o’tish – 5 ball	
8.2. Rejadan tashqari malaka oshirish kurslaridan o’tish – 0 ball	

8.3. Turli elektron ta’lim resurslaridan foydalanishni o’rganadi va ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llaydi – 8 ball	
8.4.Turli metodik birlashmalar, seminarlarda faol ishtirok etadi 11 ball	
IX. Keyingi o’quv yiliga ish faoliyatini rejalashtirish	**15 ball**
9.1. Keyingi o'quv yili uchun rivojlanish sohasi bo'yicha rejalashtirish mavjud – 10 ball	
9.2. Keyingi o'quv yili uchun rivojlanish sohasi bo'yicha rejalashtirish qisman mavjud – 5 ball	
9.3. Keyingi o'quv yili uchun rivojlanish sohasi bo'yicha rejalashtirish mavjud emas – 0 ball	
Yakuniy ball	**160 ball**

Pedagogning o'quv yilidagi faoliyatining (kompetentligi) darajasi

2-jadval

Darajasi	**Kompetensiya**	**Bahosi (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari)**
Reproduktiv (past)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida berilgan namuna bo’yicha faoliyatini tashkil etadi	30dan 50 ballgacha
Samarali (o’rta)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini tashkil etadi va turli ta’lim resurslarini o’rganadi	51dan 85 ballgacha
Ijodiy (yuqori)	“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini turli ta’lim resurslaridan foydalangan holda tashkil etadi. Mustaqil ravishda “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida mavzuli rejalarni ishlab chiqadi	86dan 160 ballgacha

metodist _____ _____

(imzo) (FISh)

«_____»_____ 20___ y.

Nazorat savollari:

1.Bolaning rivojlanish xaritalarini yuritishda qaysi ish hujjatlari o’zaro mutanosib olib boriladi?

2.O’quv yili yakunida hisobotni yoritishda nimalarga alohida ahamiyat beriladi?

3.Tarbiyachi bola yutuqlari xaritasida erishilgan natijani qanday belgi bilan belgilaydi?

4. KBTD ko’rsatkichlarini izohlang.

5. Maktabga tayyorgarlik xaritasini qanday belgilaymiz?

6. Faoliyatlar jadvalini tuzishda nimaga e’tibor qaratish lozim?

5-Mavzu: Yozgi sog’lomlashtirish davrida tarbiyachining ta’lim va tarbiyaviy faoliyati (80 daqiqa)

Reja

1.Yoz o‘tmoqda soz mavzuli rejalashtirish

2.Maktabgacha yoshdagi bolalarni chiniqtirish ishlari

Yoz o‘tmoqda soz mavzuli rejalashtirish

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog’lom, jismoniy barkamol va har tomonlama rivojlanishlari uchun zarur shartsharoitlar yaratib berilishini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog’lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e’tibor berish zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog’lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish yozgi sog’lomlashtirish davri (iyun-tashkilotavgust)da amalga oshiriladi. Aynan, yoz faslida bolalarning ochiq havoda ko’proq sayr qilishlari, tanasini chiniqtirish, harakatda bo’lish va salomatligini mustahkamlash uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida qulay va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o’tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va yorqin o’tishini ta’minlash, charchoqyozdi mashqlar, turli ko’ngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirish, kichik sayrlarni tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, suv muolajalarini o’rinli qo’llash va alohida belgilangan kun tartibiga qat’iy amal qilish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashuvi yoshlarning, xususan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning sog’lig’i, jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Natijada sog’liqni saqlash, umumiy rivojlanish va profilaktik vazifalarni hal qilishda sog’liqni himoyalash texnologiyalari, ularni optimal va oqilona tashkil etilishidan faol foydalanish kerak bo’ladi.

Bunday vazifalarni amalga oshirishning eng samarali shakllaridan biri yoz faslidir.

Yoz - bolalar juda ko’p yurish, chopish va sakrashi mumkin bo’lgan ajoyib va unumdor vaqt.

Yozgi sog’lomlashtirish mavsumining maqsadlari:

- salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
- yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlanish faolligini, xissiy va kognitiv rivojlanishini ta’minlash;
- bolalarning bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlashga yo’naltirilgan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonning samarali shakl va usullaridan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sog’lomlashtirish mavsumining vazifalari:

- bolalarning salomatligini mustahkamlash;
- tabiiy omillardan keng foydalanish hisobiga bolalarni sog’lomlashtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish: havo, quyosh, suv;
- o’quv yili davomida olingan BKMni mustahkamlashga qaratilgan ta’limiytarbiyaviy jarayonni tashkil etish;
- sog’lom turmush tarzi va bilimga bo’lgan qiziqishni rivojlantirish;
- xavfsiz xatti-harakat ko’nikmalarini takomillashtirish;
- tabiat qo’yni (gulzor, bog’, tajriba maydonchasi)da mehnatni tashkil etish, bilish faoliyati, turli xil ta’limiy va harakatli o’yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, samarali ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (sharoit)dan foydalanish;
- ota-onalar o’rtasida tarbiya va sog’lomlashtirish masalalari bo’yicha pedagogik va sanitariya-targ’ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sport sog’lomlashtirish ishlarni rejalashtirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotining yozgi mavsumga tayyorligi mezonlari:

- o’yin va jismoniy tarbiya maydonchalarini SanPiN talablari asosida jihozlanishi, bolalar hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish bo’yicha ko’rsatmalarga

rioya qilish;

- kerakli hujjatlarning mavjudligi: yozgi davr uchun MTTning ish rejasi, ichimlik rejimini tashkil etish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish, bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar, davolashprofilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar;

- qum va bolalar maydonchasini o'z vaqtida namlantirish uchun sharoit yaratish;

- bolalar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

Sport, harakatli o'yinlar, sport bayramlari, ekskursiya va boshqalarni o'tkazish, shuningdek, sayrlar davomiyligini oshirish tavsiya etiladi.

Sog'lomlashtirish jarayoni samarali bo'lishiga erishish uchun kun tartibiga bolalarning ochiq havoda maksimal darajada bo'lishlari, yoshga mos uyqu va dam olishning boshqa turlari nazarda tutiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlar:

✓ suv, loy va qum bilan o'ynaladigan yelim o'yinchoqlar;

✓ qo'l yuvish uchun suv, bir martalik sochiqchalar, chiqindilar uchun chelak;

✓ shamol o'yinlari uchun jihozlar (aylanalar, qog'oz pirpiraklar, lentalar);

✓ voqeaband va teatrlashtirilgan o'yinlar uchun jihoz va qo'g'irchoqlar;

✓ sport o'yinlari uchun jihozlar (xalqalar, keglilar, badminton, arqonchalar, har xil kattalikdagi to'plar);

✓ stol bosma o'yinlari;

✓ tabiat qo'ynida mehnat qilish uchun kerakli jihozlar to'plami (kurakcha, belkurak, supurgi, hokandoz, xaskash, suv sochadigan jo'mrakli chelakchalar);

✓ qo'l mehnati uchun kerakli ashyolarning qog'oz qutilarda bo'lishi (rangli va rangsiz qog'ozlar, bo'yoq, plastilin shablon-andozalar, bo'yash uchun kitobchalar, sochiqchalar);

- ✓ sayrda namoyish etish va hikoya qilib berish uchun badiiy adabiyotlar;
- ✓ yengil to’shama, shirma va pardalar.

Tashqariga olib chiqiladigan jihozlarning xavfsizligi (singan, teshilgan joylarini yo’qligi) tekshirilib, har kuni sayrdan keyin yuviladi, quritiladi va quti yoki savatlarga joylanadi. Sayrdan so’ng har bir jihoz ko’zdan kechiriladi.

Sayr va o’yinlardan so’ng ayvoncha, maydoncha va bolalar uychalari tozalanadi, suv bilan yuviladi.

Qum saqlanadigan joylar doimo tozalanib, qum elanib, nam holatda saqlanishi ta’minlanadi, o’ynab bo’lingandan so’ng qum ustini g’ilofi bilan berkitib qo’yiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotda yozgi dam olish davriga tayyorgarlik barcha xodimlar tomonidan o’z lavozim vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yoz davrida tashkil etilgan ta’limiy jarayon bolaning 5 ta rivojlanish sohasini qamrab oladi:

- jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishini rejalashtirish va tashkil etish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni chiniqtirish ishlari

Maktabgacha ta’lim tashkiloti hududida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda harakatli, sport o’yinlarni tashkil qilish uchun joy, sport o’yinlarining elementlari bilan jihozlanganligi muhimdir. Jismoniy tarbiya yo’riqchisi yordamida “Sog’lomjon” markazini tashkil etish mumkin. Bu markazda sport inventarlari, turli harakatli o’yinlar uchun ishlatiladigan jihoz va anjomlar jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzini shakllantirishda yordam beradi. Markazda sayr va safarlarga chiqishga tayyorgarlik ko’rish mumkin, shuningdek, haftalik syujetli-rolli o’yinlar va sahnalashtirish yoki jismoniy sport o’yinlarini rejalashtirish lozim.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishni rejalashtirish va tashkil etish.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi vazifalari har kuni barcha faoliyat turlari va rivojlantirish markazlarida hal qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning eng asosiy faoliyati bo'lgan o'yin faoliyatida ham shu vazifalar samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun, yoz mavsumida bolalarning yoshi, o'yin malakalarini shakllantirishga qaratilgan ijodiy o'yinlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kichik guruh tarbiyachilari bolalarning bosh va qo'shimcha rollarni ijro etganda o'zaro hamkorlikda bo'lishlariga ahamiyat berishlari, katta guruhlarda esa o'yin syujetini yaratishga, syujetli-rolli o'yinlarda faollik ko'rsatishga e'tibor berishlari kerak.

Kattalarning o'yin jarayonidagi ishtiroki uyatchan, tortinchoq bolalarda liderlik (yetakchilik) sifatlarini shakllantirishga imkon bersa, o'ziga yuqori baho beradigan bolalar esa o'zaro kelishib birgalikda bajarishga, ikkinchi darajali rollarni ijro etishga undaydi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalarni yo'l harakati va hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish va ularni mustahkamlashga katta e'tibor berish lozim. Tarbiyalanuvchilar biror ertak qahramonlari yordamida yoshlariga mos ravishda yo'l belgilari bilan tanishishlari, ko'chada, uyda, jamoat joylarda, tabiat qo'ynida o'zlarini qanday tutishlari, xavfsizlik qoidalariga qanday rioya qilishlari lozimligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lib boradilar.

Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalarning moslashuvini tashkil qilish bo'yicha psixologlarning tavsiyalarini inobatga olish hamda "Onam bilan birga" moslashuv guruhlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Ijodiy rivojlanishni rejalashtirish va tashkil etish.

Teatrlashtirish, qo'shiq aytish, tinglash, shovqinli cholg'ularni chalish, rasm chizish, loy bilan ishlash yozning istiqbol rejasida mavjud bo'lishi kerak. Ushbu faoliyatni tashkil qilish o'quv yili jarayonidan farqli va o'zgacha bo'lishi kerak. Ya'ni:

-rassomning ustaxonasiga sayohat – bu soyabonli ayvonchadagi molbertlar, ijodkorlik uchun turli xil material, jihozlar mavjud, tajribali tarbiyachi esa har safar

chizish uchun yangi texnikani taklif qiladi: “barmoq va kaftda rasm solish”, “diatipiya va monotipiya”, “plastilin va mozaik rasmlar”, “sachratib rasm solish”, “tabiat shakllarining bosmasi”, “g’ijimlangan qog’oz bilan rasm chizish”, “klyaksografiya”, “xo’l qog’ozga rasm solish”;

-“Kulolnikida mehmonda” maydonchasi, bu yerda loy, plastilindan buyumlar yasash mumkin;

- musiqa rahbari tashkil etgan musiqa markaziga tashrif. Bu parda yoki teatr shirmasi bilan jihozlangan sahna qo’rinishidagi maydoncha bo’lib, unda cholg’ular (qo’lda yasalgan yoki haqiqiysi): puflab chalinadigan, urib chalinadigan, shovqinli musiqiy cholg’u asboblari, stolda o’ynaladigan musiqiy-ta’limiy o’yinlar, ovozkuchaytirgich, disk, noutbuk (kompyuter) kabi anjomlar tashkil etilishi mumkin. Musiqa markazida teatr burchagi bo’lib, unda chodir va qo’g’irchoqlar bo’lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotida musiqiy faoliyatning quyidagi shakllari an’anaviydir: bo’sh vaqtni tashkil etish, bayramlar, ko’ngilochar tadbirlar, mustaqil musiqiy faoliyat, teatr tomoshalari va spektakllar, raqs va ertalabki musiqiy gimnastika. Noan’anaviy tadbirlar - musiqiy loyihalar, integratsiyalashgan musiqiy xordiqlar, bayram yoki ko’ngilochar tadbirlar. Masalan: noan’anaviy shakllardan foydalanish tarbiyachilar va ota-onalarning ijodiy salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Yozgi sog‘lomlashtirish davri mavzuviy reja namunasi

Oy mavzusi	**Hafta mavzusi**	**Yosh guruhlari**			
		Kichik guruh	**O‘rta guruh**	**Katta guruh**	**Maktabga tayyorlov guruh**
Iyun	1-hafta: Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik
Baxtli bolalik	2-hafta: Gullar va qushlar	Qushlar bizning do‘stimiz	Gulzorga mehr	Gulzordagi gullar	Gulzordagi gullar

	3-hafta: Tabiat qo‘ynida	Bog‘imizga sayr qilamiz	Bog‘cha bo‘ylab sayr	Jonli va jonsiz tabiat	Jonli va jonsiz tabiat
	4-hafta: Ertak qahramonlari - bizning mehmonimiz	Ertak qahramonlari mehmonda	Ertak qahramonlari mehmonda	Ertak qahramonlari mehmonda	Ertak qahramonlari mehmonda
Iyul **Quvnoq yoz**	1-hafta: Yoz o‘tmoqda soz	Yozgi o‘yinlar	Yozgi o‘yinlar	Yoz - soz	Yoz - soz
	2-hafta: Sport - salomatlik garovi	Quvnoq estafetalar	Quvnoq estafetalar	Biz yosh sportchilarmiz	Biz yosh sportchilarmiz
	3-hafta: Kitoblar olamiga sayohat	Ertaklar yaxshilikka etaklar	Ertaklar olamiga sayyohat	Qiziqarli uchrashuvlar	Qiziqarli uchrashuvlar
	4-hafta: Suv bayrami	Suv qiroli mehmonda	Suv qiroli mehmonda	Suvning xususiyatlari	Suvning xususiyatlari
Avgust **Quvnoq va sog‘lom bolalar**	1-hafta: Vitaminlar	Sabzavot va mevalar	Sabzavot va mevalar	Vitaminlar bilan qiziqarli uchrashuvlar	Vitaminlarning sarguzashtlari
	2-hafta: Buni bilishimiz kerak	Kattalarga quloq sol	Kattalarga quloq sol	Buni bilish foydali	Buni bilish foydali
	3-hafta:O‘ynaymiz–quvnaymiz	O‘yinlar shaharchasi	O‘yinlar shaharchasi	O‘ynab o‘rganamiz	O‘ynab o‘rganamiz
	4-hafta: Yoz taassurotlari	Zavqli yoz	Zavqli yoz	Yoz o‘tdi soz	Yoz o‘tdi soz

Yoz mavsumida sog’lomlashtirish tadbirlari shakllari
-ertalabki gimnastika (an’anaviy, korreksiyalovchi);
-sog’lomlashtiruvchi yugurish;
-har xil turdagi sport o’yinlari;
-harakatli o’yinlar;

-yayov yurib sayr qilish, ekskursiyalar, yo’nalishlar bo’yicha sayr (eng oddiy sayyohlik);

-mayda motorika, diqqat va harakatlarni rivojlantirish, muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatli mashqlar, muvozanatga qaratilgan mashqlar, dam olish gimnastikalari, to’g’ri qaddi-qomat va tovonlarni jipslash uchun mashqlar;

-basseyn (hovuz)dagi mashg’ulotlar;

-sport mashqlari va sport turlari elementlari;

-uyqudan keyingi sog’lomlashtiruvchi muolajalar;

-chiniqtiruvchi tadbirlar;

-kun tartibidagi yakka tartibdagi ishlar.

Tashkiliy ishlar

№	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas’ul	Izoh
1	Yozgi sog’lomlashtirish davrida foydalaniladigan ish hujjatlarini tayyorlash	Mayning 3-haftasi	Tashkilot pedagog xodimlari	Maktabgacha ta’lim vazirligining 2023 yil 28-avgustdaagi 99-buyrug’i asosida sog’lomlashtirish davri uchun barcha ish hujjatlari rasmiylashtirildi.
2				
3				

Sog’lomlashtirish-chiniqtirish ishlari

№	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas’ul	Izoh
1	Har bir guruh uchun faol harakatli tadbirlar rejasini tuzish	Mayning 3-haftasi	Tashkilot ishchi guruhi a’zolari	Tadbirlar rejasi tuzilib, MTT direktori tomonidan tasdiqlandi
2				
3				

Ta’limiy-tarbiyaviy ishlar

№	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas’ul	Izoh

1	Yozgi sog'lomlashtirish davri uchun mavzuli rejalashtirish asosida ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga hozirlik ko'rish	Mayning 3-haftasi	Tashkilot pedagog xodimlari	4-sonli pedagogik kengashda pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan yozgi sog'lomlashtirish davri uchun taqdim etilgan tavsiya bilan tanishtirildi.
2				
3				

Sport va ko'ngilochar tadbirlar

№	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
1	"Biz baxtli bolalarmiz!" bayram tadbiri	31-may	Tashkilot ijodiy guruhi	1-iyun-Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazilib, uning bayonnomasi rasmiylashtirildi
2				
3				

Hamkorlik ishlari

№	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
1	Kuzatuv kengashi va mahalla faollari ishtirokida yozgi sog'lomlashtirish davrini xavfsiz va mazmunli o'tkazish yuzasidan yig'ilish	Mayning 3-4-haftasi	MTT mudiri, kzatuv kengashi va mahalla raisi	Yig'ilish o'tkazilib, bayonnoma rasmiylashtirildi.
2				
3				

-Har bir guruh uchun faol harakatli tadbirlar rejasini tuzishda ularning shakllarini xilma-xilligiga e'tibor qaratish, shuningdek, jismoniy faoliyat bilan bog'liq tadbirlar (harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, ekskursiya, mehnat)ni hisobga olish muhimdir. Bunday tadbirlar havo isib ketgunga qadar yoki havo salqin paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Eng issiq kunlar

(chilla)da bolalar uzoq vaqt davomida to’g’ridan-to’g’ri quyosh ostida bo’lishiga yo’l qo’ymaslik kerak.

Tarbiyachi ishini oqilona tashkil etish uchun ertalabki gimnastika komplekslari, sport mashqlari (sport o’yinlari elementlari: futbol, basketbol, badminton, velosiped va samokatda uchish), harakatli o’yinlar, estafetalar, mayda motorikani rivojlantirish va dam olish mashqlari kartotekasini yozgi mavsum uchun tayyorlab qo’yish kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiri va shifokor bolalarni chiniqtirish va sog’lomlashtirish ishlarini to’g’ri tashkil etish uchun mas’uldirlar.

Yozgi sog’lomlashtirish davrida chiniqtirish muolajalarini tashkil etish juda muhim bo’lib, u bola oganizmini himoya qilish funksiyasini mustahkamlaydi, infeksiyalarga va haroratning o’zgaruvchanligiga bardoshli bo’lishga tayyorlaydi, qon aylanishini, modda almashinuvini, aqliy faoliyatini yaxshilaydi va asab tizimi faolligini oshiradi.

Maxsus chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilishda MTTdagi barcha bolalarni guruhlarga ajratish tavsiya etiladi.

1-guruh. Bolalar sog’lom, ilgari chiniqtirilgan.

2-guruh. Bolalar sog’lom, birinchi marta chiniqtiriladigan tadbirlarni boshlaydigan yoki salomatligida ayrim kamchiliklar bor bolalar.

3-guruh. Surunkali kasalliklarga chalingan bolalar yoki uzoq vaqtdan keyin maktabgacha ta’lim muassasasiga kelgan bolalar.

Chiniqtirish tadbirlari davomida, kamida 2-oyda bolalar bir guruhdan ikkinchisiga o’tkazilishi mumkin. Bolalar quyidagi mezonlar asosida guruhlarga o’tkaziladi:

-bu davrda o’tkir kasalliklarning yo’qligi;

-bolalarning chiniqtirish tadbirlariga ijobiy hissiy munosabati; -sovuqqa nafas siqishi, yurak urishining keskin oshishi, “g’oz terisi” bilan qoplanish kabi salbiy tashqi belgilarning yo’qligi.

Toza havoda chiniqish jarayonlari suv va quyoshda chiniqishdan oldin tashkil etilishi lozim.

Quyoshda chiniqish daraxtlar soyasida engil havo vannalari bilan boshlanadi, so’ngra bolalarning qo’llari, oyoqlari yalang’och holda quyosh vannalariga o’tadilar, bunda bolalarning boshida har doim engil qalpoqcha bo’lishi shart.

Quyosh vannasini olish uchun bolalarning o’yinlarini 5-6 daqiqada quyoshning to’g’ridan-to’g’ri nurlari ostida olib borish, keyin yana soyaga qaytish tavsiya etiladi. Quyoshdan qorayish boshlangandan so’ng quyosh vannalari umumiy tarzda tashkil etiladi, buning uchun bolalar trusik va maykada, keyin esa bitta trusiqda bo’ladilar.

Yozgi mavsumida bolalarni sog’lomlashtirishning shakl va metodlari

№	**Sog’lamlashtirish shakl va metodlari**	**Mazmuni**
1	Sog’lom turmush tarzini yaratish	1. Yengillashtirilgan rejim 2. Moslashtirilgan rejim

		3. Yoz mavsumida guruh hayotini o'ziga xos tarzda tashkil etish. 4. Ichimlik rejimiga rioya qilish
2	Jismoniy mashq	1. Ertalabki badantarbiya 2. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, mashqlar, ko'ngilochar o'yinlar 3. Harakatli va ta'limiy o'yinlar 4. Profilaktika gimnastikalari (qomatni tik tutish, yassi oyoqlikni oldini olish, ko'rish qobiliyatini yaxshilash va h.o.) 5. Sport o'yinlari 6. Jismoniy va dam olish daqiqalari
3	Gigienik va suv muolajalari	1. Yuvinish. 2. Qo'llarni tirsakkacha yuvish 3. Suv va qum bilan o'yinlar
4	Havo vannasi	1. Xonalarni shamollatish (yelvizak) 2. Derazalar ochiq holda uxlash 3. Kuniga 2-marta toza havoda sayr qilish 4. Harorat rejimini ta'minlash
5	Faol dam olish	1. O'yin-kulgi va bayramlar 2. Qiziqarli o'yinlar 3. Salomatlik kunlari 4. MTT hududi va undan tashqarida sayr va sayohatlar
6	Musiqa terapiyasi	1. Kun davomidagi tadbirlarni musiqa va qo'shiqlar jo'rligida tashkillashtirish 2. Musiqa ostida o'yin, mashq, ko'ngilochar tabdirlarni olib borish 3. Yoz mavsumida musiqiy va teatrlashtirilgan faoliyat
7	Autotrening va psixogimnastika(ruhiy xotirjamlikni saqlash)	1. Hissiy sohani rivojlantirish uchun o'yin va mashqlar 2. Asab tarangligini yumshatuvchi o'yin-treninglar 3. Psixogimnastika 4. O'z-o'zini massaj qilish o'yini 5. Nafas olish va barmoq mashqlari
8	Chiniqtirish	1. Hovli va o'yin maydonchasida yalangoyoq yurish 2. O'yinli massaj 3. Guruhda mashq yo'lagi (tugmali, g'adir-budur, tuzli, yormali, halqachali, to'siqli) 4. Hovli va maydonchalardagi 5. "Salomatlik yo'laklari" 6. Oyoqlarga suv quyish

9	Sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish	Maslahat, suhbatlar tashkil etish
10	Vitaminoterapiya	Ovqatlanish ratsioniga sharbatlar, mevalar, sabzavotlar va ko’katlar kiritish

Yozgi sog’lomlashtirish mavsumida chiniqtirish tadbirlari

Guruhlar	**Chiniqtirish tadbirlari**	**Vaqti**
Kichik yosh guruhi (3-4 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho’milish G’adir-budur yo’lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10 daqiqa Tashkilot jadvaliga ko’ra 15 daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 10 daqiqa
O’rta yosh guruhi (4-5 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho’milish G’adir-budur yo’lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10 daqiqa Tashkilot jadvaliga ko’ra 20 daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 15 daqiqa
Katta yosh guruhi (5-6 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho’milish G’adir-budur yo’lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10 daqiqa Tashkilot jadvaliga ko’ra 25 daqiqa

		Kunduzgi uyquga yotishdan avval15 daqiqa
Tayyorlov yosh guruhi (6-7 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho'milish G'adir-budur yo'lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10 daqiqa Tashkilot jadvaliga ko'ra 25 daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 15 daqiqa

Nazorat savollari:

1. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etishda jarayonlar nima asosida olib boriladi ?

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chiniqtirishda qanday amalga oshiriladi?

3. Yozgi sog'lomlashtirish mavsumi uchun tahminiy kun tartibi tashkil etishga qo'yilgan asosiy talablarni ayting.

4. Ertalabki doirada yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalar bilan qanday suhbat mavzularini rejalashtirish mumkin?

5.Yozgi sog'lomlashtirish davrida sayr jarayonida qanday vazifalarni rejalashtirish mumkin?

6.Yozgi sog'lomlashtirish davrida kunning 2-yarmida qanday vazifalarni rejalashtirish mumkin?

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni

3.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-sonli qaror. 2019-yil 8-may.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta`lim agentligining 2024-yil 1-avgustdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirlig tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 238-sonli buyrug‘i

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i

6.Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o`zbek va rus tillarida)

7. “Ilm yo‘li” variativ dastur 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. T.: 2022

8. N.Sh.Abdullayeva Kelajak sari ilk ta’lim bilan: Variativ ta’lim ; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2020. – 104 b.

9.Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T – 2020

10. Shin A.V.Mirziyoeva Sh.Sh.Grosheva I.V.va boshqalar. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish” T.:2020-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TARBIYACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI REJALASHTIRISH”

o‘quv moduli bo‘yicha

MODULNING TEXNOLOGIK XARITASI

Modulning texnologik xaritasi

Modul		“Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish”
Ishchi o‘quv rejadagi joyi (tartib raqami)		1-mavzu
Dars mavzusi		Tarbiyachisining ish hujjatlarini rasmiylashtirish
Davomiyligi		2 soat
Darsning maqsadi		Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘ining mazmuni haqida tushuncha. 05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.
Kutilayotgan natija:	Bilim	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘ining mazmuni haqida
	Ko‘nikma	05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish jarayonida pedagog kompetentligini qo‘llagan holda hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish
	Malaka	05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi	
Didaktik materiallar	Tarqatma materiallar, savollar
Ta’limning texnik vositalari	Mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish uchun texnik vositalar (AKT), flipchart, A-4, marker

Dars mazmuni			
T.r.	Bosqichlar	vaqt	Metod va faoliyatning tavsifi
1	Tashkiliy	2 daqiqa	Tinglovchilar davomati va auditoriyani darsga tayyorligi aniqlanadi

2	Tinglovchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash	5 daqiqa	Mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi (aqliy hujum) .
3	Mavzuni reja asosida yoritish	40 daqiqa	I.Kirish 1.Dastur va uning tuzilishi 2.05 ish hujjatlarini tartibi. II.Asosiy qism 1. 05-01-05-03 yuritilishi va tartibi 2.05-02 yuritilishi va tartibi 3.05-04 yuritilishi va tartibi 4. Nazorat savollari va tahlil 5. Adabiyotlar ro‘yxati. (Mavzuga tegishli ilmiy ma’lumotlar berish, hayotiy misollar keltirish, tavsiyalar ishlab chiqish)
4	Amaliy topshiriqlar	25 daqiqa	Davra suhbati, bahs-munozara, o‘zaro tajriba almashish
5	Nazorat	3 daqiqa	Mustaqil ish topshiriqlari
6	Darsning yakuni	5 daqiqa	Xulosa (savol –javob, fikr-mulohazalar va takliflar)

Modulning texnologik xaritasi

Modul		“Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish”
Ishchi o‘quv rejadagi joyi (tartib raqami)		2-mavzu
Dars mavzusi		Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish :kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish
Davomiyligi		2 soat
Darsning maqsadi		Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish haqida tushuncha. Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish malakasini shakllantirish.
Kutilayotgan natija:	Bilim	Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish mazmuni haqida
	Ko‘nikma	Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish jarayonida pedagog kompetentligini qo‘llagan holda hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish
	Malaka	Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi	
Didaktik materiallar	Tarqatma materiallar, savollari
Ta’limning texnik vositalari	Mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish uchun texnik vositalar (AKT), flipchart, A-4, marker

Dars mazmuni

T.r.	Bosqichlar	vaqt	Metod va faoliyatning tavsifi
1	Tashkiliy	2 daqiqa	Tinglovchilar davomati va auditoriyani darsga tayyorligi aniqlanadi
2	Tinglovchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash	5 daqiqa	Mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi (Taqoslash , tahlil)

3	Mavzuni reja asosida yoritish	40 daqiqa	I.Kirish 1.Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish 2.Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish. II.Asosiy qism 1. Bola bilan yakka ishlashда pedagog hamkorligi 2. Sayrda asosiy harakatlarni faollashtirishda bola bilan yakka ishlashni olib borish 3.Rivojlanish xaritasida indekatorlarni faollashtirishda yakka ishning o‘rnini ochib berish 4. Nazorat savollari va tahlil 5. Adabiyotlar ro‘yxati. (Mavzuga tegishli ilmiy ma’lumotlar berish, hayotiy misollar keltirish, tavsiyalar ishlab chiqish)
4	Amaliy topshiriqlar	25 daqiqa	Davra suhbati, bahs-munozara, xatolar ustida ishlash metodlari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyasini qo‘llash
5	Nazorat	3 daqiqa	Mustaqil ish topshiriqlari tahlili
6	Darsning yakuni	5 daqiqa	Xulosa (savol –javob, fikr-mulohazalar va takliflar)

Modulning texnologik xaritasi

Modul		“Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish”
Ishchi o‘quv rejadagi joyi (tartib raqami)		3-mavzu
Dars mavzusi		Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali) yuritish tartibi
Davomiyligi		2 soat
Darsning maqsadi		Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘ining mazmuni haqida tushuncha. 05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.
Kutilayotgan natija:	Bilim	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘ining mazmuni haqida
	Ko‘nikma	05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish jarayonida pedagog kompetentligini qo‘llagan holda hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish
	Malaka	05-MTT tarbiyachining ish hujjatlari rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi	
Didaktik materiallar	Tarqatma materiallar, savollari
Ta’limning texnik vositalari	Mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish uchun texnik vositalar (AKT), flipchart, A-4, marker

Dars mazmuni			
T.r.	Bosqichlar	vaqt	Metod va faoliyatning tavsifi
1	Tashkiliy	2 daqiqa	Tinglovchilar davomati va auditoriyani darsga tayyorligi aniqlanadi

2	Tinglovchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash	5 daqiqa	Mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi (aqliy hujum) .
3	Mavzuni reja asosida yoritish	40 daqiqa	I.Kirish 1.Dastur va uning tuzilishi 2.05 ish hujjatlarini tartibi. II.Asosiy qism 1. 05-01-05-03 yuritilishi va tartibi 2.05-02 yuritilishi va tartibi 3.05-04 yuritilishi va tartibi 4. Nazorat savollari va tahlil 5. Adabiyotlar ro‘yxati. (Mavzuga tegishli ilmiy ma’lumotlar berish, hayotiy misollar keltirish, tavsiyalar ishlab chiqish)
4	Amaliy topshiriqlar	25 daqiqa	Davra suhbati, bahs-munozara, o‘zaro tajriba almashish
5	Nazorat	3 daqiqa	Mustaqil ish topshiriqlari
6	Darsning yakuni	5 daqiqa	Xulosa (savol –javob, fikr-mulohazalar va takliflar)

Modulning texnologik xaritasi

Modul		“Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish”
Ishchi o‘quv rejadagi joyi (tartib raqami)		4-mavzu
Dars mavzusi		Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish
Davomiyligi		2 soat
Darsning maqsadi		Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish haqida tushuncha. Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirishda XI bo‘lim bo`yicha malakasini shakllantirish.
Kutilayotgan natija:	Bilim	Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish mazmuni haqida
	Ko‘nikma	Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish jarayonida pedagog kompetentligini qo‘llagan holda hamda to‘ldirishdagi xatoliklarni hisobga olish
	Malaka	Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi	
Didaktik materiallar	Tarqatma materiallar, savollari
Ta’limning texnik vositalari	Mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish uchun texnik vositalar (AKT), flipchart, A-4, marker

Dars mazmuni			
T.r.	Bosqichlar	vaqt	Metod va faoliyatning tavsifi
1	Tashkiliy	2 daqiqa	Tinglovchilar davomati va auditoriyani darsga tayyorligi aniqlanadi

2	Tinglovchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash	5 daqiqa	Mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi (Taqoslash , tahlil)
3	Mavzuni reja asosida yoritish	40 daqiqa	I.Kirish 1. Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish haqida ma’lumot 2. Bolalarning rivojlanish xaritasida maqsadlarni belgilash tartibi. II.Asosiy qism 1. Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish XI bo‘limni mazmunini yoritilishi 2. Bolalarning rivojlanish xaritasida maqsadlar:oraliq va yakuniyni yoritilishi 3. Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish 4. Nazorat savollari va tahlil 5. Adabiyotlar ro‘yxati. (Mavzuga tegishli ilmiy ma’lumotlar berish, hayotiy misollar keltirish, tavsiyalar ishlab chiqish)
4	Amaliy topshiriqlar	25 daqiqa	Davra suhbati, bahs-munozara, xatolar ustida ishlash metodlari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyasini qo‘llash
5	Nazorat	3 daqiqa	Mustaqil ish topshiriqlari tahlili
6	Darsning yakuni	5 daqiqa	Xulosa (savol –javob, fikr-mulohazalar va takliflar)

Modulning texnologik xaritasi

<table>
<tr><td colspan="2">Modul</td><td colspan="4">“Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish”</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ishchi o‘quv rejadagi joyi (tartib raqami)</td><td colspan="4">5-mavzu</td></tr>
<tr><td colspan="2">Dars mavzusi</td><td colspan="4">Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Davomiyligi</td><td colspan="4">2 soat</td></tr>
<tr><td colspan="2">Darsning maqsadi</td><td colspan="4">Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish haqida tushuncha. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida 05-02 oylik ish rejasini rasmiylashtirish malakasini shakllantirish.</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Kutilayotgan natija:</td><td>Bilim</td><td colspan="4">Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish mazmuni haqida</td></tr>
<tr><td>Ko‘nikma</td><td colspan="4">05-02 oylik ish rejasini rasmiylashtirish malakasini shakllantirish jarayonida pedagog kompetentligini qo‘llagan holda hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish</td></tr>
<tr><td>Malaka</td><td colspan="4">05-02 oylik ish rejasini rasmiylashtirish malakasini shakllantirish</td></tr>
<tr><td colspan="6">Darsning jihozi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Didaktik materiallar</td><td colspan="3">Tarqatma materiallar, savollari</td></tr>
<tr><td colspan="3">Ta’limning texnik vositalari</td><td colspan="3">Mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish uchun texnik vositalar
(AKT), flipchart, A-4, marker</td></tr>
<tr><td colspan="6">Dars mazmuni</td></tr>
<tr><td>T.r.</td><td>Bosqichlar</td><td colspan="2">vaqt</td><td colspan="2">Metod va faoliyatning tavsifi</td></tr>
</table>

1	Tashkiliy	2 daqiqa	Tinglovchilar davomati va auditoriyani darsga tayyorligi aniqlanadi
2	Tinglovchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash	5 daqiqa	Mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi (aqliy hujum) .
3	Mavzuni reja asosida yoritish	40 daqiqa	I.Kirish 1. Yozgi davr 05-02 oylik ish rejasini rasmiylashtirish 2. Yozgi davr 05-02 ish hujjatlarini tartibi. II.Asosiy qism 1. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish haqida tushuncha. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida 2. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayon tadbirnomasi 3. Yozgi sog‘lomlashtirish davrida chiniqtirish tadbirlari 4. Nazorat savollari va tahlil 5. Adabiyotlar ro‘yxati. (Mavzuga tegishli ilmiy ma’lumotlar berish, hayotiy misollar keltirish, tavsiyalar ishlab chiqish)
4	Amaliy topshiriqlar	25 daqiqa	Davra suhbati, bahs-munozara, o‘zaro tajriba almashish
5	Nazorat	3 daqiqa	Mustaqil ish topshiriqlari
6	Darsning yakuni	5 daqiqa	Xulosa (savol –javob, fikr-mulohazalar va takliflar)